

## **QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA SUD HOKIMIYATI TIZIMI**

*Abduazimov Xurshidbek Baxrom o`g`li*

*Toshkent davlat yuridik universiteti "Davlat boshqaruvi huquqi" magistranti*

[surshidbekabduazimov@gmail.com](mailto:surshidbekabduazimov@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu tezisda Qoraqalpog`iston huquqiy tizimining bir bo`lgabo`lgan bo`lgan Qoraqalpog`iston Respublikasi sud hokimiyati tizimi o`rganilgan. Sud hokimyatining qonuniy asoslar, respublika sud tizimining turlari, ularning tarkibi hamda sudyalar maqomi to`g`risida so`z yuritilgan.. Bundan tashqari Qoraqalpog`iston Respublikasi Sud rayosati haqida ma`lumot berilgan.

**Annotation.** In this thesis, the judicial system of the Republic of Karakolpagstan, which is a part of the legal system of Karakolpagstan, was studied. The legal framework of the judiciary, the types of the Republican judicial system, their composition and the status of judges were mentioned.. In addition, information is provided about the judicial Presidium of the Republic of Karakolpokhistan.

**Kalit so`zlar.** Sud, Jo`qorgi Kengash, sud rayosati, sud raisi, Suyalar oliv kengashi, ma`muriy sud, sud apparati.

**Keywords.** Court, Jo`qorg`i Kenges, judicial presidium, chairman of the court, Supreme Council of suyas, Administrative Court, judicial apparatus.

Qoraqalpog'iston Konstitutsiyasining 11-moddasiga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo`linishi prinsipiiga asoslanishi belgilangan bo`lib, mazkur asosiy qonunning XXII bobi Qoraqalpog'iston Respublikasining sud

hokimiyatining konstitutsiyaviy asoslariga bag'ishlangan<sup>1</sup>.

Qoraqalpog'iston Respublikasida ishlarning toifalariga qarab sudlarning ixtisoslashuvi amalda joriy etilgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sud tizimida Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari, jinoyat ishlari bo'yicha tuman va shahar sudlari, tumanlararo, tumanlararo iqtisodiy sudlari va tumanlararo ma'muriy sudlari faoliyat ko'rsatadilar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlararo, tuman, shahar sudi sudyasi O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashining taqdimnomasiga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan lavozimga tayinlanadi<sup>2</sup>. (O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 69-modda).

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudi raisi, rais o'rinosari O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashining O'zbekiston Respublikasining Prezidenti bilan kelishib, olingan xulosasi asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisining taqdimnomasiga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan saylanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlararo, tuman, shahar sudi raisi, rais o'rinosari O'zbekiston Respublikasi Sudyalar Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan tayinlanadi<sup>3</sup>. (O'z- oliv kengashining taqdimnomasiga binoan Qoraqalpog'iston bekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 70-modda).

Sudya birinchi marta besh yillik muddatga, navbatdagi o'n yillik muddatga va

---

<sup>1</sup> "Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi //www.joqargikenes.uz

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.07.2021-y, 03/21/703/0723-soni.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.07.2021-y, 03/21/703/0723-soni

lavozimda bo'lishning muddatsiz davriga belgilangan tartibda sayylanadi yoki tayinlanadi. (O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 71-modda).

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudi sudyasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlararo, tuman (shahar) sudi raisi, rais o'rribosari, sudyasi vakolat muddati davrida o'zining roziligi bilan O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi taqdimnomasiga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan boshqa sudyalik lavozimiga o'tkazilishi mumkin. (O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni, 73-modda).

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudi, tumanlararo, tuman, shahar sudlari sudyasining vakolatlari - O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining xulosasi asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi kiritgan taqdimnomaga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan muddatidan ilgari tugatiladi<sup>4</sup>. (O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-modda).

Qoraqalpog'iston Respublikasining sudi rais, rais o'rindo sarlari fuqarolik, jinoyat va iqtisodiy ishlari bo'yicha sudlov hay'atlari raislari, sudyalar, shuningdek, xalq maslahatchilaridan iborat bo'ladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi - fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati; jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati; iqtisodiy ishlari bo'yicha sudlov hay'atlari tartibida ish olib boradi<sup>5</sup>. (O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 32-modda).

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi o'z vakolatlari doirasida ishlarni birinchi va appellatsiya instansiysi sudi sifatida ko'radi; tumanlararo, tuman, shahar sudlarining sudlov faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi; sud amaliyoti va sud statistikasini umumlashtiradi, ularning tizimli tahlilini amalga oshiradi; sud amaliyoti obzorlarini tayyorlaydi; sudyalar va sud apparati xodimlari malakasini oshirish bo'yicha ishlarni tashkil qiladi.

---

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.07.2021-y, 03/21/703/0723-soni.

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.07.2021-y, 03/21/703/0723-soni.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi rayosati shu sudning sudyalaridan iborat tarkibda ish yuritadi; rayosat majlislari zaruriyatga qarab, lekin har oyda kamida bir marta o'tkaziladi va rayosat a'zolarining ko'pchiligi hozir bo'lgan taqdirda vakolatlidir; rayosatning qarorlari ovoz berishda ishtirok etgan rayosat a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi va tegishli sudning raisi tomonidan imzolanadi<sup>6</sup>.

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi rayosati o'z vakolatlari doirasida sud amaliyotini umumlashtirish va obzorlari, sud statistikasi tahlili materiallarini ko'rib chiqadi; rais o'rindbosarlari va sudlov hay'atlari raislarining sudlov hay'atlari faoliyati haqidagi ma'ruzalarini eshitadi; tumanlararo, tuman, shahar sudlari raislarining shu sudlar faoliyati to'g'risidagi qonunchilikni qo'llash amaliyoti haqidagi ma'ruzalarini eshitadi; rayosat qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin (O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni, 35-modda).

Qoraqalpog'iston Respublikasi sudining sudlov hay'atlari o'z vakolatlari doirasida ishlarni birinchi instansiya bo'yicha ko'radi; ishlarni appellatsiya tartibida ko'radi; sud amaliyotini o'rganadi va umumlashtiradi; sud amaliyoti obzorlarini tayyor- laydi; sud statistikasini tahlil qiladi, qonunga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin (O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni, 36-modda).

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi  
[www.joqargikenes.uz](http://www.joqargikenes.uz)
2. O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni
3. M.Utemuratov, O.Babadjanov Qoraqolpog`iston Respublikasining konstitutsiyaviy maqomi. Qo'llanma
4. "Коқақалпогистон Республикасининг Конституцияси". Н.: 1993

---

<sup>6</sup> M.Utemuratov, O.Babadjanov Qoraqolpog`iston Respublikasining konstitutsiyaviy maqomi. Qo'llanma